
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU. ILMIY XABARLAR-

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ТАРИХ

M.Xurramov
1991 - 2016 yillarda o‘zbekiston-qozog‘iston munosabatlarida markaziy osiyo integratsiyasi muammolari 95
R.Arslonzoda
Istiqlol yillarida o’zbekistonda arxiv ishi huquqiy asoslarining yaratilishi 102
I.G‘ulomov, Z.Kasimova
O‘zbekiston SSR aholisini ro‘yxatga olish 109
G’.Haydarov
Farg’ona vodiysi aholisi ijtimoiy turmush sharoitlarini yanada yuksaltirishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari tarixi 116
G.Dadamirzayeva
Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda farg‘ona viloyati artellarining faoliyati 121
A.Abduvali
Shokir sulaymon yurt taraqqiyotiga xizmat qilgan turkiston yoshlarining faol vakili 126
N.Komilov
Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o‘rinbosari – islom shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari 131
M.Darmonova
“Katta qirg‘in”ning yosh qurboni 136
L.Sokolova
Farg'ona vodiysi: ustozga bag'ishlanish marosimining shakllari 140
O.Zaripov
“Tarjimon” gazetasida Turkistonda yer-suv masalalarining yoritilishi 146
K.Kodirov
O‘zbekiston respublikasida mahkumlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish 151
B.Jumayev
Gastronomik turizm tushunchasining paydo bo’lishi va uning tarixiy asoslari 155
U.Usarov
Rossiya imperiyasi rasmiy amaldorlari va taftish komissiyalarining turkistondagi yer-suv munosabatlariga doir faoliyatiga oid ba’zi mulohazalar 162
Sh.Tosheva
VIII – XII asrlarda o'rta osıyo shaharlarıda kasbıy o'zlıknıng o'zıga xos xususıyatları 166

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.Sabirdinov
Tuganmas ilhom manbai 171
Q.Yo‘lchiyev
Lirik janr haqida ba’zi mulohazalar 175
G.Mashrapova
Safar semantikasi va genezisiga doir ayrim mulohazalar 181
Sh.Jumanova
Usmon azim she’riyatida kuz motivi 184
E.Shevchenko
O’zbek adabiyot sharhi: boshlanish davridan hozirgi kungacha 188
G.Nazarova
Ingliz hamda o’zbek adabiyotida mifologik obrazlarning mifologizatsiyasi va ularning o’ziga xosligi 194
D.Xusenova
Lev tolstoyning hayoti va ijodiy faoliyatida sharqning o'rni 198

TILSHUNOSLIK

Х.Махсудова, Ш.Шаҳобиддинова
Эргонимларнинг лексик-семантик хусусиятлари 202

TARIX

UDK: 94(575.1+470):323/327(584.4)

ROSSIYA IMPERIYASI RASMIY AMALDORLARI VA TAFTISH KOMISSIYALARINING TURKISTONDAGI YER-SUV MUNOSABATLARIGA DOIR FAOLIYATIGA OID BA'ZI MULOHAZALAR

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ К ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОФИЦИАЛЬНЫХ ЧИНОВНИКОВ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ И РЕВИЗИОННЫХ КОМИССИЙ ПО ЗЕМЕЛНО-ВОДНЫМ ОТНОШЕНИЯМ В ТУРКЕСТАНЕ

SOME COMMENTS ON THE ACTIVITIES OF OFFICIALS AND INVESTIGATION COMMISSIONS OF THE RUSSIAN EMPIRE ON LAND AND WATER RELATIONS IN TURKESTAN

Usarov Umidjon Abdimavlyanovich[1]

[1]Usarov Umidjon Abdimavlyanovich – O'zMU O'zbekiston tarixi kafedrasi katta o'qituvchisi, t.f.f.d., PhD.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Rossiya imperiyasining XIX asrning ikkichi yarmi – XX asr boshlaridagi Turkiston o'lkasida imperiya hukumati tomonidan o'lkani boshqarish uchun tayinlangan rasmiy amaldorlar foaliyatiga alohida to'xtalib, ularning o'lkadagi yer-suv munosabatlariga oid olib borgan siyosati ochib berilgan. Shuningdek, Turkistonda yer-suv munosabatlari, xususan, yer va mulkka egalik qilish, suv manbalari hamda sug'orish tizimini imperiya manfaatlariga mos xolda tartibga solish borasida tashkil etilgan maxsus ishchi va taftish komissiyalarining o'lkadagi faoliyati hamda ularning natijalari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Mazkur maqola davr manbalari hisoblangan arxiv xujjatlari, statistika ko'mitalari ma'lumotlari, taftish komissiyasi hisobotlari hamda turli davrlarda mavzuga oid olib borilgan tadqiqot ishlari tahlili asosida yoritilgan.

Аннотация

В данной статье особый акцент был сделан на деятельности официальных должностных лиц Российской империи, назначенных правительством Империи для управления в Туркестанском крае во второй половине XIX – начале XX веков, и была раскрыта их политика в земелно-водных отношений в крае. Также была предоставлена информация о деятельности специальных рабочих и ревизионных комиссий, созданных в Туркестане по вопросам земельно-водных отношений, в частности, владения землей и имуществом, водных ресурсов и регулирования ирригационной системы в соответствии с интересами Империи, а также об их результатах. Эта статья основана на архивных документах, рассматриваемых как источники периода, данных статистических комитетов, отчетах ревизионной комиссии и анализе исследовательских работ, проведенных по этому вопросу в разные периоды.

Annotation

In this article, special emphasis was placed on the activities of officials of the Russian Empire, appointed by the government of the Empire to manage the country of Turkestan in the second half of the 19th - early 20th centuries, and their policy in land and water relations in the region was revealed. Information was also provided on the activities of special working and revision commissions established in Turkestan on isissues of land and water relations, in particular, ownership of land and property, regulation of water resources and the irrigation system in accordance with the interests of the Empire, as well as their results. This article is based on archival documents considered as sources of the period, data from statistical committees, reports of the audit commission and an analysis of research works carried out on this issue in different periods.

Kalit so'zlar. *Rossiya imperiyasi, Turkiston o'lkasi, general-gubernatori, nizom, yer egaligi, sug'orish tizimi, taftish komissiyasi, hisobot.*

Ключевые слова*. Российская империя, Туркестанский край, генерал-губернатор, положение, землевладение, ирригационная система, ревизионная комиссия, отчет.*

Keywords. *Russian Empire, Turkestan Territory, governor-general, regulation, land tenure, irrigation system, audit commission, report.*

KIRISH. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o'lkasini bosib olingan hududlarida o'zining mustamlaka manfaatlarini mustahkamlash maqsadida o'lkani boshqarish uchun alohida Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilib, ularga o'zlarining eng ishonchli vakillari bo'lgan generallarni boshliq etib tayinlashgan. Turkistonni boshqarishda katta vakolatga ega bo'lgan rasmiy amaldorlar o'lkadan keladigan asosiy daromadlar qishloq xo'jaligi, xususan, paxtadan bo'lganligi tufayli o'lkadagi yer-suv munosabatlariga jiddiy e'tibor qaratgan. Imperiya hukumati tomonidan o'lkada faoliyat olib borgan

rasmiy amaldorlarga imperiya xazinasiga imkon qadar ko‘proq foyda keltirish hamda metropoliya markazidagi sanoat korxonalarini Turkiston o‘lkasi qishloq xo‘jaligining arzon hamashyosi bilan taminlash vazifasi yuklatilgan edi. Shu bilan birga Turkistonda Rossiyaimperiyasining keyingi davrdagi siyosatini amalga oshirish uchun bir necha ishchi va rasmiy taftish komissiyalari tashkil etilgan. Bu komissiyalarning xulosalariga ko‘ra, Turkistonni idora etish uchun maxsus nizom va yangi konun hujjatlari ishlab chiqilib, ular orqali o‘lkani mustamlakachi imperiya manfaatlari ta’sir doirasiga yanada ko‘proq tushishiga xarakat qilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili (Literature review). Turkiston o‘lkasida Rossiya imperiyasining rasmiy amaldorlari va taftish komissiyalarining yer-suv munosabatlariga oid siyosatini o‘rganishda arxiv xujjatlari, statistik sharhlar, hamda taftish komissiyalari hisobotlari birlamchi manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu manbalarda o‘lkada imperiya hukumatining yer-suv masalasidagi boshqaruvni o‘z manfaatlariga moslashtirish borasidagi olib borgan siyosati aks etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Milliy arxivi Turkiston general-gubernator mahkamasi (I-1-fondning – 9, 9a, 923, 2319 - yig‘ma jildlari), Sirdaryo viloyati statistik qo‘mitasi materiallari (1891), Turkistonda taftish o‘tkazgan F.K.Girsa (1882) va K.K. Palen komissiyalari hisobotlari kabi manbalarda o‘lkada mustamlaka imperiya hukumatining tayinlangan rasmiy amaldorlarining yer egaliga va sug‘orish tizimiga doir faoliyatlari ochib berilgan. Shuningdek, A.P. Savitskiy (1963), A. Yuldashev (1969), O. Suyunova (2002), N.Abdurahimova, F.Ergashev(2002), D.J. Urokov (2006), K.A. To‘xtabekov (2008), N.Maxmudova (2016), Sh.B. Muxamedov(2020) kabi mualliflarning tadqiqot ishlari doirasida o‘lkaning yer egaligi hamda irrigatsiya ishlariga to‘xtalib o‘tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu maqolani yozishda muammoviy va miqdoriy tahlil, tizimlilik jamlash, qiyosiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Rossiya imperiyasi rasmiy amaldorlari va taftish komissiyalarining Turikston o‘lkasida mustamlakachi imperiya nomidan olib borgan agrar siyosati davr manbalari ilmiy adabiyotlar va tadqiqot ishlarining tahlili asosida yoritilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi hukmron doiralari Turkiston o‘lkasini bosib olgandan keyingi dastlabki davrlardan boshlab o‘lkaning yer egaligi va sug‘orish ishlariga alohida e’tibor berdi. Turkiston o‘lkasining birinchi general-gubernatori K.P.Kaufman bu borada o‘ziga berilgan keng vakolatlardan foydalangan xolda sohaga oid qator tadbirlarni amalga oshirdi[1, 90]. Hattoki u o‘zining general-gubernatorlik davrida (1867-1881 yillar) o‘lkadagi yerga egalik masalasida bir necha yangi loyihalarni ishlab chiqishga boshchilik qilib, ba’zi holatlarda esa bu sohada ayrim tajribalar ham o‘tkazadi[7, 14]. Imperiya hukumati topshirig‘i bilan 1868 yilning boshida mahalliy aholi va ko‘chmanchilarning yer huquqlarini o‘rganish hamda aniqlash, undan tashqari, hukumat yer va mulk egaligi masalasida qaysi yer huquqiga rioya qilishi kerakligini hal qilish maqsadida, “Harbiy okrug kengashi” a’zosi bo‘lgan polkovnik M.N.Nikolayevga “kelajakda ma’muriy faoliyatni yuritish uchun o‘lkada yer-suv munosabatlarini o‘rganib chiqish” bo‘yicha alohida topshiriq berildi. Polkovnik M.N.Nikolayev o‘lkada mahalliy o‘troq va ko‘chmanchi aholi orasida mavjud yer egaligi huquqini aniqlash, shundan kelib chiqqan holda hukumat uchun qaysi tartiblardan foydalanishi samarali ekanligini ko‘rsatib berishi lozim edi[16, 24]. Bundan tashqari, 1869 yilning mayida Turkiston o‘troq aholisining yer egaligi huquqlarini o‘rganish maqsadida general shtab shtabs-kapitani V. Komarov kutubxona va ilmiy muassasalarda ishlash uchun Peterburgga jo‘natildi[4, 41].

Polkovnik M.N.Nikolayev, general shtab shtabs-kapitani V.Komarov va sharqshunos A.Kunlar berilgan topshiriqlar ustida ishlab 1869 yil 11 avgustda Turkiston general-gubernatoriga o‘lkada yer egaligining “nazariy va huquqiy” jihatlariga aniqlik kiritilgan ma’lumotlarni topshirdi. M.N. Nikolayev o‘z hisobotida Turkiston aholisining yerga bo‘lgan huquqini uch turga, ya’ni ko‘chmanchi xalqlarning yerga bo‘lgan huquqi, o‘troq aholi va rus millatiga mansub aholining yerga oid huquqlariga bo‘ldi[7, 18]. Muallif ko‘chmanchi aholining yerga bo‘lgan huquqlarini Sibir qirg‘izlari, Stavropol guberniyasi ko‘chmanchilari, Astraxan va Stavropol guberniyalaridagi qalmiqlarning imperiyada o‘rnatilgan huquqlaridan kelib chiqqan holda tahlil qildi. Hisobotlarda ko‘chmanchilar qonunan mustahkamlangan holda hech yerda shaxsiy yerga ega bo‘lmaganliklari, ularga yer meros qolmasligi ta’kidlab o‘tildi. Ular faqat davlat tomonidan ko‘rsatilgan yerlarda chorva boqishlari, ekin ekishlari mumkin bo‘lgan. Lekin ular yerni sotish, shartnoma tuzish, almashtirishga huquqiga ega bo‘lmaganlar[7, 18]. Shuningdek, u o‘troq aholi masalasiga alohida yondashib, avvalo, yerga egalik turlari va ulardan olingan soliqlar[12] hamda mahalliy aholining yer-suvga bo‘lgan munosabati imperiyadagi boshqa musulmonlarnikidan farq qilishi haqida ma’lumotlar to‘pladi[11]. M.N.Nikolayev tomonidan tayyorlagan xulosa jami 12 banddan iborat bo‘lib, hisobotda imperiya tarkibiga o‘tgan barcha yerlarni qanday bo‘lishidan qat’i nazar hammasi

davlat mulki bo‘lishi lozimligi ta’kidlandi. Faqatgina “mulk yerlari” xususiy mulk hisoblanishi, lekin ularda avlodlardan o‘tib kelganligini tasdiqlovchi hujjat bo‘lishi lozimligi qayd etildi[15, 76].

1869 yil 6 oktabrda K.P.Kaufman mahalliy ma’murlar hamda aholi vakillaridan iborat yangi komissiya tuzdi. O‘lka general-gubernatorligi devonxonasining boshlig‘i A.I.Gomzin komissiyaga rais etib tayinlandi. Komissiya tarkibiga Sirdaryo viloyati boshqarmasi boshlig‘i, polkovnik Eyler, Yettisuv viloyati boshqarmasi boshlig‘i Ozerov, Jizzax uyezdi boshlig‘i Nosovich, Avliyoota uyezdi boshlig‘i Madinskiy, Chimkent uyezdi boshlig‘i yordamchisi Gerasimov, devonxona ish yurituvchisi Savenkovlar kiritildi. Komissiyaga “o‘lkada yer-suv munosabatlarini muhokama etish va masalalarni hal etish” topshirig‘i berildi. Mazkur komissiya o‘lkadagi yer egaligi munosabatlarini o‘rgandi va A.I. Gomzin 3 ta ma’ruzadan iborat ma’lumotnoma tayyorladi[7, 16]. General-mayor A.I. Gomzin tomonidan tayyorlangan “Davlatning yerga bo‘lgan huquqi” deb nomlangan birinchi ma’ruzada ko‘chmanchi aholi hamda o‘troq aholi yashaydigan yerlarga nisbatan bo‘lgan huquq haqida ma’ruza qilib, unda davlat yerning haqiqiy egasi ekanligi ta’kidlagan[7, 30]. Lekin komissiya a’zolari mahalliy tilni va shariat qonun-qoidalarini bilmasligi bois o‘zlariga yuklatilgan vazifani to‘liq bajara olmadi. To‘liq hisobot ololmagan K.P.Kaufman rus va mahalliy ma’muriyat xodimlaridan, xalq vakillaridan, shuningdek, har bir uyezddan yana 2 nafardan kishini komissiya a’zoligiga kiritdi[2, 21].

O‘tkazilgan komissiyalar hisobotidan kelib chiqib, 1871 yilda K.P.Kaufman boshchiligida tayyorlangan “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom loyihasi Harbiy vazirlikka topshirildi. Loyihaga harbiy vazirlik tomonidan ko‘plab e’tirozlar bildirildi. K.P.Kaufman loyihaning turli qismlari ustida qayta ishlash uchun alohida komissiyalar tuzish maqsadida 1872 yil 27 yanvarda Zarafshon okrugi boshlig‘i, general-mayor A.K.Abramovga 659-raqamli xat yo‘lladi. Unda Harbiy vazir D.A.Milyutin bilan kelishilgan holda Nizom loyihasini “mahalliy sharoitlardan kelib chiqib chuqur o‘rgangan holda qayta ishlab” keyin qonun doirasida tasdiqlash 1872 yil kuziga qoldirilganligini bildirdi. Shundan so‘ng, Nizomning har bir bo‘limi ustida ishlash uchun komissiyalar tuzildi. U komissiyalardan biriga A.K.Abramov rais etib tasdiqlandi. Komissiya olti oy davomida ishlab, ma’lumotlarni aniqlashtirish va jamlash maqsadida o‘lka qishloqlariga ikki marotaba borib, u yerdagi ahvol bilan tanishdi[7, 49]. 1872 yilning o‘zida A.K.Abramov boshchiligidagi komissiya faoliyatiga oid xulosalarni o‘lka general-gubernatorligiga topshirib, o‘z faoliyatini tugatdi.

Bu vaqtga kelib o‘lkada siyosiy vaziyat og‘ir bo‘lib, xonliklarga qarshi harbiy harakatlar davom etib kelayotgan edi. Shunday bo‘lsa-da, yer egaligi munosabatlariga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lib kelgan imperiya ma’muriyati o‘lkadagi siyosiy vaziyatdan, ya’ni 1873 yilda Xiva xonligiga boshlangan yurish, Buxoro amirligining “betaraf”ligining tan olinishi kabi jarayonlardan foydalangan holda general-gubernator K.P.Kaufman raisligida tuzilgan yangi komissiya general A.K.Abramov takliflarini inobatga olib, o‘lkani boshqarish Nizomining moddalariga o‘zgartirishlar kiritdi. Natijada, 1871-1873 yillar ishlab chiqilgan va tasdiqlash uchun taqdim etilgan “Nizom”larda mahalliy yirik yer egalari manfaatlari inobatga olinib, ularga berilgan qator imtiyozlar ham saqlab qolindi. Moliya vaziri M.X. Reytern, Davlat nazorati hamda Tashqi ishlar vazirligi bu loyihaning mana shu qismlari to‘liq ishlanmaganligini, bu choralar xatarli ekanligini, loyiha oxirigacha ishlanmaganligini bildirib qaytardi[10]. Biroq, 1873 yilda K.P. Kaufman tomonidan ishlab chiqilgan nizom tasdiqlanmagan bo‘lsa-da, amalda ulardan Farg‘ona viloyati va Amudaryo bo‘limlarida 1886 yilga qadar foydalanib kelindi[9, 155].

1881 yilda Harbiy vazir Turkiston general-gubernatorligidan Nizomning oxirgi loyihasini topshirishni so‘ragach, general-leytenant Kolpakovskiy 1882 boshida hisob bo‘yicha uchinchisi bo‘lgan 1873 yildagi Nizom asos qilib olingan yangi Nizom loyihasini ko‘rib chiqish uchun general-adyutant M.D.Skobelev boshchiligida alohida yangi tuzilgan komissiyaga topshirdi. Lekin, o‘lkaga kelgan yangi general-gubernator M.G. Chernyayev bu komissiya faoliyatini to‘xtatdi, o‘lkani yangidan taftish qilish uchun uning maxsus so‘roviga ko‘ra, Rossiya imperatorining topshirig‘i bilan Turkiston o‘lkasini taftish qilish bo‘yicha maxfiy maslahatchisi F.K.Girs boshchiligida maxsus taftish komissiyasi tuzildi[13]. F.K.Girs o‘lkaga kelgach, Turkiston general-gubernatorligidan avvalgi komissiyalar xulosalari va o‘lka bo‘yicha ma’lumotlarni unga taqdim etishlarini so‘rab o‘lka general-gubernatoriga murojaat qildi[14]. Komissiya yer-suv munosabatlarini o‘rganish maqsadida o‘tkazgan tekshiruvlari natijasi 1886 yildagi “Turkistonni boshqarish to‘g‘risidagi Nizom”da o‘z aksini topdi. Nizomning qator bandlari aynan yer-suv masalalariga bag‘ishlandi[8, 27].

Taftish komissiyasi qishloqlarni aylanishi, yer masalalarida muammo chiqqan joylarda yerga oid bo‘lgan hujjatlar bilan tanishib, aholi bilan suhbatlar o‘tkazish orqali vaziyatni avval tushunib olishi, shu tariqa yer mojarolarini xolis hal etish kerakligi, dehqonlarning yerga egaligining huquqiy asoslarini to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini o‘rganib chiqishi lozim edi. F.K.Girs o‘z hisobotida mahalliy qishloqlar va rus qishloqlari o‘rtasidagi yer munosabatlarida qiyosiy solishtirish xato bo‘lishini ta’kidlagan holda ikki

tomonning xo‘jaligi yer bilan bog‘liq ekanligini anglash lozimligini, o‘lkada yer-suv munosabatlarida qur’a tashlash bilan ish yuritish umuman mumkin emasligini ta’kidlaydi[5, 314].

Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan Turkiston o‘lkasida 1908-1909 yillarda yana imperiya senatining a’zosi, graf K.K.Palen boshchiligida taftish o‘tkazish uchun komissiya tuzildi. Turkiston o‘lkasida yer egaligi va yerdan foydalanishda o‘lkaning tabiiy-geografik joylashuvi, joylarning topografiyasi muhim ahamiyat kasb etganligi bois, bu komissiya o‘lkani har tomonlama chuqurroq o‘rgandi. Komissiyaga o‘lka xalqlari xo‘jalik hayotini to‘liq o‘rganish vazifasi yuklatildi. Shu maqsadda komissiya o‘lka viloyatlari, uyezdlari va deyarli barcha volostlari bilan qiziqib, ularning xo‘jalik hayotini to‘liq o‘rganish uchun o‘lkaning 29 hududini tanlab oldi. Komissiya tomonidan “Davlat mulki”, “Yer xo‘jaligi”, “Turkistonga ko‘chirish ishi”, “Turkistonda sug‘orish ishlari” bo‘yicha ma’lumotlar to‘plandi[3, 13].

Taftish komissiyasi o‘lka hududlaridagi yerlarni sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan yerlarga ajratib, ularni besh asosiy turga bo‘ldi: 1) vodiy yerlari; 2) vodiy-dasht yerlari; 3) tog‘oldi hududlardagi yerlar; 4) tog‘li hududlardagi yerlar; 5) dasht yerlari[6, 10]. Shuningdek, komissiya o‘lkada davlat budjetiga daromad keltiruvchi mayda yer egaligi va ko‘chmanchi chorvachilikka ixtisoslashgan yer egaliklari ham mavjud bo‘lganini qayd etdi[3, 87]. Bu ikki soha yiliga 6,5 million rubl daromad keltirib, imperiyaning moliya hisobotida asosiy baza hisoblangani sababli o‘lkadagi bu ikki sohani alohida o‘rganib, uning ahvoli va ehtiyojlarini aniqlash lozim bo‘ldi[6, 12].

K.K.Palenning taftish komissiyasi hisobotlarida o‘lka irrigatsiya ishlariga ham alohida to‘xtalib o‘tilgan. Unga ko‘ra, mahalliy aholi o‘zlashtirgan yerlar sug‘orma dehqonchilikka hamda lalmi yerlarga asoslangan. Bunday yerlar Kattaqo‘rg‘on, O‘sh, Jizzax uyezdlaridan tashqari boshqa joylarda ham bo‘lgan. Foydalanilgan ariqlarga qarab jamoalarning soni aniqlangan. Bunday jamoalar Chimkent uyezdining Sayram, Mankent, Qoramurt, Iqon, Qarnoq, Suzoq, Chelakqo‘rg‘on qishloqlarida ham bo‘lgan[1, 105].

XULOSA. Umuman olganda, Turkiston o‘lkasida faoliyat olib borgan general-gubernatorlar hisobotlarini o‘rganish orqali o‘lkadagi mustamlakachi imperiya hukumatining yer-suv munosabatlari, xususan, yer egaligi va mulkchilik munosabatlarini mustamlaka tizimiga mos xoldagi o‘zgarishlar, yangi yerlarni o‘zlashtirish, sun’iy sug‘orish tizimi, suv manbalari, sug‘orish inshoatlarini ta’mirlash va yangilarini barpo etish kabi masalalari haqida ko‘plab ma’lumotlar olish mumkin. Shuningdek, o‘lkada imperiya hukumati siyosatining qanday holatda ekanligi, o‘lkani yanada yaxshiroq o‘rganish, barcha sohalar, xususan, yer-suv munosabatlarining ahvoli haqida asosli va to‘g‘ri ma’lumotlarni to‘plash uchun rasmiy taftish komissiyalari tashkil etilgan. Bu komissiyalarning hisobot tarzidagi xulosalari orqali o‘lkaning holati aniqlanib, o‘lkadagi kelgusi faoliyatlarini davom ettirishda foydalanishgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Абдураҳимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Тошкент: Академия, 2002. – 90 б.
2. Благовъещенский В.Ц. К вопросу о вакуфах в Сыр-Дарьинкой области. Сборник материалов для статистики Сыр-Дарьинкой области. Изд. Сыр-Дарьинскаго областного Статистического комитета. Под ред. секретаря комитета И.И. Гейера. – Ташкент: Типо-литография С.И.Лахтина, 1891.
3. Махмудова Н. Развитие административного управления, социально-экономических и культурных процессов в колониальном Туркестане в начале XX века. – Ташкент: Фан, 2016.
4. Мухамедов Ш.Б. Россия и Средняя Азия: страницы истории, личности, мнения. – Ташкент: Baktria press, 2020.
5. Отчет ревизующего, по высочайшему повелению, Туркестанский край, тайного советника Ф.К. Гирса. – СПб., 1882. – С. 314.
6. Пален К.К. Материалы к характеристике народного хозяйства в Туркестане. Часть 1. – СПб., 1911.
7. Савицкий А.П. Поземельный вопрос в Туркестане (в проектах и законе 1867–1886 гг.). – Ташкент, 1963.
8. Суюнова О. Чор Россиясининг Туркистонни бошқариш ҳақидаги 1886 йил Низомининг аграр бандлари ҳақида / O‘zbekiston tarixi. – № 1. – Тошкент, 2002. – 27 б.
9. Тухтабеков К.А. Чор Россияси мустамлакачилиги шароитида Туркистонда ер эгалиги ва унинг ўрганилиш тарихи // Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2008.
10. ЎзМА, И-1-фонд, 12-рўйхат, 923-йиғмажилд, 47-варақ.
11. **ЎзМА, И-1-фонд, 14-рўйҳат, 9ª-йиғмажилд, 16-варақ.**
12. **ЎзМА, И-1-фонд, 14-рўйҳат, 9-йиғмажилд, 20-варақ.**
13. ЎзМА, И-1-фонд, 1-рўйхат, 2319-йиғма жилд, 73-74-варақлар.
14. ЎзМА, И-1-фонд, 1-рўйхат, 2319-йиғмажилд, 94-варақ.
15. **Уроқов Д.Ж. Туркистонда Россия империяси маъмуриятининг расмий ҳисоботлари – тарихий манба сифатида (XIX аср охири – XX аср бошлари): Тарих фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 76 б.**
16. Юлдашев А. Аграрные от ношениия в Туркестане (конец XIX – начало XX вв.). – Ташкент, 1969. – С. 24.

(Taqrizchi: B.Usmanov-tarix fanlari doktori, dotsent)